

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI VA UNING LINGVOMADANIY KONTEKSTI

Kamola Shuhratovna IKRAMOVA

Mustaqil izlanuvchi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Samarqand, O‘zbekiston

e-mail: kamolaikramova471@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada adabiyotda ayol obrazini shakllantirish va talqin etish jarayoni madaniyatlararo munosabatlarga oid tadqiqotlar doirasida o‘rganiladi. Tahlil davomida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” asarlaridagi ayol obrazlari lingvomadaniy va lingvokognitiv yondashuvlar asosida qiyosiy tahlil etiladi.

Tayanch so‘zlar: ayol obrazi, lingvomadaniy tahlil, lingvokognitiv yondashuv, konsept, til va tafakkur, adabiyot, madaniyatlararo munosabatlar.

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ЕГО ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ

Камола Шухратовна ИКРАМОВА

Независимый исследователь

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Самарканд, Узбекистан

Аннотация

В статье процесс формирования и интерпретации женского образа в литературе рассматривается в контексте межкультурных исследований. В рамках анализа проводится сопоставительное лингвокультурное и лингвокогнитивное изучение женских образов в романах Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» и Джейн Остин «Гордость и предубеждение».

Ключевые слова: образ женщины, лингвокультурный анализ, лингвокогнитивный подход, концепт, язык и мышление, литература, межкультурные взаимодействия.

Adabiyotda ayol obrazini yaratish va talqin etish masalasi madaniyatlararo va nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnda ayol qahramonlar nafaqat muallifning estetik mahoratini, balki jamiyatning ayollarga munosabatini, muayyan davr ruhini ham aks ettiradi. Ayol obrazini shakllantirish jarayonini lingvomadaniy (til va madaniyat aloqasi) va lingvokognitiv (til va tafakkur aloqasi) nuqtai nazardan o‘rganish adabiyotshunoslik va tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan hisoblanadi [1; 238]. Chunki til bir vaqtning o‘zida ham milliy madaniy qadriyatlar ko‘zgusi, ham inson ongidagi konseptual tizim ifodasidir.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” (“Pride & Prejudice”) romanlari misolida Sharq va G‘arb adabiyotida ayol obrazini yaratishdagi lingvomadaniy hamda lingvokognitiv xususiyatlarni o‘rganish madaniy jihatdan bir-biridan uzoq milliy adabiyotlarda ayol qahramonlar tasviri masalasiga oydinlik kiritish imkonini beradi. A. Qodiriy o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotida ilk tarixiy roman orqali o‘sha davr ayollari qismatini real bo‘yoqlarda yoritgan bo‘lsa, J. Ostin Angliyaning regentlik davri jamiyatida ayollarning o‘rnini o‘ziga xos kinoya bilan tasvirlagan.

Adabiy matnni lingvomadaniy va lingvokognitiv tahlil qilish filologiya ilmda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shakllanganligi ko‘pgina tadqiqotlarda ta’kidlanadi [2; 43]. Lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) til hodisalarini milliy-madaniy kontekstda o‘rganadi. Ushbu yondashuv V. fon Gumboldt g‘oyalari asosida til va millat tafakkuri o‘zaro bog‘liq degan qarashdan kelib chiqqan bo‘lib, tilni biror xalqning madaniy kodi sifatida qaraydi.

Ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos urf-odat, an’ana va qarashlari tilda aks etadi – masalan, xalq maqollari, iboralari orqali. Shu bois lingvomadaniy tahlil adabiy asardagi so‘z va iboralarning ortida yotgan milliy madaniy semantikani ochib berishga intiladi. Masalan, Y. S. Stepanov rus tilida asosiy madaniy konseptlar lug‘atini tuzgan bo‘lsa, V. N. Teliya frazeologizmlardagi milliy konnotatsiyalarni tadqiq etgan – bular lingvokulturologik izlanishlarga misoldir [3; 991].

Lingvokognitiv yondashuv esa adabiy matndagi obraz va konseptlarni idrok qilish, ularni til vositasida ifodalash usullarini o‘rganar ekan, tilni inson ongining mahsuli deb biladi va tilda aks etgan tushunchalar tizimini tahlil qiladi [4; 321]. Xususan, “konsept” tushunchasi muhim bo‘lib, matnda muayyan obraz (masalan, “ayol” konsepti) qanday lug‘aviy-semantik vositalar yordamida gavdalantirilganini o‘rganish lingvokognitiv tahlil vazifasidir. Bu yondashuv matnda qahramonlarning dunyoqarashi, xarakteri va ular haqidagi tasavvurlar til orqali qanday “kodlangan”ligini tushunishga imkon beradi.

Shu bilan birga, gender tilshunoslik ham aynan kognitiv va madaniy yondashuvlar tutashgan nuqtada rivojlangan bo'lib, u tilda erkak va ayolga xos ifoda vositalari, gender stereotiplari tadqiqi. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, so'nggi yillarda inson jinsiga oid qarashlar biologik mohiyatdan ko'ra ko'proq "madaniy belgilangan mental konstrukt" sifatida talqin qilinmoqda. Demak, adabiyotda "ayol" obrazi muallif va o'quvchi ongida shakllangan bir konsept bo'lib, unga tarixiy tajriba, madaniy stereotiplar va individual tafakkur ta'sir ko'rsatadi. Bu konsept turli madaniyatlarda turlicha ifodalanishi mumkin – masalan, Sharq adabiyotida ayol obrazi ko'proq an'anaviy oilaviy fazilatlar bilan bog'lansa, G'arb adabiyotida ko'proq shaxs erkinligi va individ sifatidagi o'zini anglash jarayoni bilan bog'langanligini ko'ramiz.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" (1925) romanida ayol obrazlari o'zbek an'ana va qadriyatlari zaminida yaratilib, ularga muallifning alohida estetik yondashuvi singdirilganligi sezilib turadi. Asarda Kumush, Zaynab, Xushruy, O'zbek oyim, Oftoboyim kabi bir qator ayol qahramonlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xarakter va tiynat bilan ajralib turadi. E'tiborlisi, bir ijtimoiy muhit va davrda yashayotgan bu ayollar "bir jinsga mansub bo'lsa-da, bir-biridan o'ta farqli, yorqin obrazlardir" [6; 85]. Muallif ularning har birini yaratishda turli badiiy-uslubiy vositalar va madaniy kodlardan foydalangan.

Kumush – asarning markaziy qahramoni va muallif tomonidan eng ideal sifatlarda tasvirlangan obraz. Kumushning ruhiy holati va tashqi qiyofasini ifoda etishda Abdulla Qodiriyning tasvirlash mahorati va badiiy tafakkuri yuksak darajada namoyon bo'ladi. Adib qahramonning ichki kechinmalarini jonli, kuchli obrazlar orqali ifoda etib, o'quvchi tasavvurida tirik bir manzara yaratadi. Quyidagi parcha bunga yaqqol misol bo'la oladi: "...uyning to'riga soling'on atlas ko'rpa, par yostiqli quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg'oq yotqan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yostiqlining turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyruq jinggila kiprak ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qaro kamon, o'tib ketgan nafis, qiyig' qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan

kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi..." [9; 13-14]. Bu tasvir Kumush obrazini nafaqat tashqi ko'rinishi, balki uning hissiy olami bilan ham uyg'un holda berib, yozuvchining so'z tanlashdagi nozik didi va lirik uslubini namoyon etadi. So'zlar marjon kabi terilgan, har bir ta'rif muayyan tuyg'uni ifodalashga qaratilgan bo'lib, bundan Kumush obrazining lingvokognitiv yuksak qiymati yaqqol seziladi. A.Qodiriy Kumushga alohida mehr bilan yondoshgani shundan bilinadiki, uning portreti va har bir xatti-harakatida muallif mislsiz injalik va latofat ko'radi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'zbek adabiyotida hech bir ayol qahramon muallif tomonidan Kumushchalik erkalatilmagan.

Muallif Kumush obrazini yuksak pardada tarannum etar ekan, lingvomadaniy unsurlar orqali uning fazilatlarini yanada ajralib ko'rsatadi. Xususan, Kumush o'z nutqida va xatti-harakatlarida xalq maqollari va purma'no so'zlarni o'rinli qo'llaydi, bu esa uning tarbiyasi va aql-zakovatini ko'rsatadi. Masalan, turmush o'rtog'i va otasi o'lim yoqasida turganida xon saroyiga tap tormay kirib borib, xatni xonga yetkazishi uning "zakovat va jasorat" bobida tengsizligini ko'rsatadi. (bu holatda Kumushning irodali ekanligini xonning o'zi ta'kidlab o'tadi).

A. Qodiriy *"O'tkan kunlar"*da lingvokulturologik birliklar – maqollar, topishmoqlar, iboralarni mohirona tarzda ishlatgan bo'lib, milliy birlik, taqdir, muhabbat, an'ana kabi mavzularni shu xalqona iboralar orqali yetkazadi. Tabiiyki, Kumush obrazining ta'sirchan chiqishida bu lingvomadaniy fon muhim rol o'ynagan: u nafaqat individuallik, balki o'zbek ayolining milliy idealini ifoda etadi.

Romanda Kumushning qismati fojiali yakun topadi – u raqibi Zaynab tomonidan zaharlanishi oqibatida vafot etadi. Kumushning zaharlanib o'lim to'shagida yotgan holati juda ta'sirli tasivrlangan: Kumush behush yotgan paytda qaynotasi Yusufbek hoji kelinining boshiga kelib, uning yuziga tushib ketgan sochlarini sekin tuzatadi va ma'yus ohangda "Oyim... oyim" deb unga murojaat qiladi. O'zbeklarda kelinni hurmatlab "oyim" deb chaqirish – ayniqsa, yoshi ulug'

qaynotaning bunday qilishini tasvirlash – chuqur madaniy kontekstga ega. Bu yerda til vositasida (ya’ni “oyim” so’zi orqali) quda-andachilik va mehr ifodalanib, kelin-qaynота munosabatlaridagi iliqlik namoyon etiladi. Lingvokognitiv nuqtai nazardan esa, ushbu sahna kitobxon ongida “mehribon ota” va “aziz farzanddek kelin” kabi tushunchalarni uyg‘otadi – ya’ni Kumush nafaqat Otabekning sevimli yori, balki butun oila uchun qadrli inson sifatida tasavvur etiladi. Bu hol Kumush obrazining yanada yuksak mavqega ko’tarilganini – hatto patriarxal oilada ham unga nisbatan hurmat balandligini ko’rsatadi.

Zaynab obraziga keladigan bo’lsak, u asarda Kumushning kundoshi va salbiy xarakter sifatida tanishtiriladi. Dastlab Zaynab itoatkor, bo’sh-bayov xotin tarzida ko’rinadi. Biroq voqealar rivoji ortidan uning qalbida rashk va alam hissi tobora kuchayib boradi. Bu jarayonda uning opasi Xushruiy singari ikkinchi darajali qahramonlar ta’sir ko’rsatadi: kundoshlik muhitida mute Zaynab sekin-asta haqini tanib, qasoskorga aylanib boradi. Ya’ni, avvaliga bo’ysunuvchan bo’lgan Zaynab asta-sekin eri oldidagi haq-huquqidan mahrum ekanligi, muhabbat bobida Otabek ko’nglida unga joy yo’qligini anglab yetadi va unda qasos tuyg’usi shakllana boradi. Bu psixologik o’zgarish lingvokognitiv tahlil uchun qiziq: Zaynab ongida “jabrdiyda ayol” konsepti “qasoskor ayol” konseptiga evriladi. Shunga qaramay, Zaynabning bu holatga kelishida Xushruiyning g’iybat va fitnalari muayyan darajada sababchi bo’lganini ko’rishimiz – “Zaynab ko’ngliga g’ulg’ula solgan Xushruiy ham ma’lum darajada Kumush halokatiga sababchi” deya yolg’iz Zaynabni ayblamaslikka tayyorlaydi.

Darhaqiqat, muallif Zaynabga ham bir qadar achinish bilan qaraydi. Xushruiy obrazi jiyani Zaynabni fitnaga undaydigan manfur qahramon bo’lsa-da, muallif uni ham oshkora la’natlab tashlamaydi, balki voqealarni hayotiy mantiq oqimida qoldiradi. Natijada, roman oxirida Kumush halok bo’lib, Zaynab aslida, o’z qilmishidan o’zi iztirobda qoladi – bu fojeiy yechim o’quvchini chuqur o’yga toldiradi. Qayd etish joizki, zamonaviy tahlillarda “O’tkan kunlar”ning ana shu kundoshlar fojiasi yangi talqinlarga sabab bo’lgan. Ba’zi tadqiqotchilar va o’quvchilar Kumushni ideal sevgi timsoli deb ulug’lash barobarida, Zaynabga ham

achinish ko‘zi bilan qarash kerakligini ta’kidlashgan. Masalan, “nega hech birimiz Zaynabga havas qilmaymiz? Aslida Kumushning achchiq qismatida Zaynab jabrdiyda emasmi!” degan savollar qo‘yiladi [11; 52]. Bu fikrlar roman matni ko‘p qirrali talqinlar uchun ajoyib material bera olishini tasdiqlaydi. Lingvokognitiv nuqtai nazardan, muallif yaratgan ayollar obrazlari bir qatlamli emas: Kumush – farishta, Zaynab – yovuz degan sodda oppozitsiya kitobxon tafakkurida vaqt o‘tib murakkablashadi, sababi, muallif har ikkala qahramon ruhiyatini chuqur va real tasvirlagan.

Shuningdek, romandagi O‘zbek oyim ham e’tiborga molik obrazlardan biri sanaladi. U Otabekning onasi sifatida ko‘proq satirik talqinda gavdalanadi. Muallif O‘zbek oyimni biroz kibrli, aslzoda xotin sifatida tasvirlar ekan, uning nutqiga xos iboralar orqali bu xususiyatlarni ochib beradi. Masalan, “O‘zbek oyim uncha-muncha to‘y azalarga “kovshim ko‘chada qolgan emas” deb bormas edi” degan jumlaning o‘qiymiz. Bu yerda avvaliga muallif tilidan “O‘zbek oyim uncha-muncha to‘y-marosimlarga bormas edi” degan ma’lumot beriladi, so‘ng qahramonning o‘z iborasi – “kovshim ko‘chada qolgan emas” qo‘shiladi. Ushbu ibora O‘zbek oyimning oqsuyaklik (aslzodalikka xos mag‘rurlik) sifatini kinoya bilan ko‘rsatadi. Ma’nosi – “begona uyga chopqillab boraveradigan odatim yo‘q, izzatim bor” degandek. Aynan shu ibora orqali obraz tabiatidagi komik qirra ham ochiladi, chunki bunday kibrli da’vo bir tarafdin jiddiy, bir tarafdin kulgili ohang beradi. Lingvomadaniy jihatdan esa, “kovshim ko‘chada qolgan emas” iborasi sof o‘zbekcha ifoda bo‘lib, milliy mentalitetdagi or-nomus tushunchasini aks ettiradi. Demak, O‘zbek oyim obrazi tilida xalqona ibora qo‘llanishi uning xarakterini yorqinroq qilish bilan birga, asarga milliy kolorit bag‘ishlagan.

Umuman olganda, “O‘tkan kunlar”da ayol obrazlari turli qirralarda namoyon bo‘ladi: Kumush – pokiza muhabbat va sadoqat timsoli; Zaynab – rashk va alamdin qasosgacha yetgan ayol qismati; Xushruy – fitna va hasadni ifodalovchi obraz; O‘zbek oyim – milliy mentalitetdagi kibrlik va bosiqlikni hajviy tarzda ko‘rsatuvchi qahramon; Oftoboyim esa ijobiy ikkinchi darajali ayol obrazi sifatida mehr-oqibatli onaxon timsolida gavdalanadi. A. Qodiriy rang-barang ayol

qahramonlar tasvirida til vositalari orqali ularning ichki dunyosini va jamiyatdagi o'rnini mahorat bilan aks ettirgan. Maqollar va iboralar, erkalash va hazil ohanglari, kinoya va dramatik tasvirlar – bularning barchasi lingvomadaniy boylik sifatida roman matniga singdirilgan. Lingvokognitiv tahlil shuni ko'rsatadiki, asarni o'qigan kitobxon ongida “ideal o'zbek ayoli” konsepti asosan Kumush obrazi orqali shakllansa-da, muallif boshqa obrazlar orqali bu konsepsiyani murakkablashtiradi va hayotiy haqiqatlarga yaqinlashtiradi. Natijada, Qodiriy ayol qismati haqida o'sha davr jamiyatida mavjud bo'lgan turli qarashlarni keng qamrovda tasvirlab, milliy adabiyotimizga o'chmas obrazlar galereyasini tuhfa etgan.

Jeyn Ostinning “Andisha va g'urur” (1813) romani ingliz adabiyotida ayol obrazi tasviri. Bu asar jamiyatdagi gender munosabatlari mavzusini yorqin aks ettirgan asarlardan biridir. Asarda asosiy e'tibor Bennetlar oilasining qizlariga, xususan, ikkinchi qiz – Elizabet Bennet obraziga qaratilgan. Elizabet obrazi orqali J. Ostin XIX asr boshlaridagi Angliya jamiyatida ayollarning shaxsiy baxti va ijtimoiy o'rnini masalalarini ko'taradi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan, roman regentlik davri Angliya urf-odatlarini, axloq normalari va sinfiy tuzilmasi fonida ayolning qanday talqin etilganini ko'rsatadi. Lingvokognitiv jihatdan esa, J. Ostin o'z qahramonlari nutqi (dialog va ichki monologlari) orqali o'quvchiga “ayol” konseptining o'sha davrdagi stereotiplarini hamda ularga muallifning munosabatini yetkazadi.

Elizabet Bennet – J. Ostinning eng mashhur qahramonlaridan biri bo'lib, u aqlli, tili burro, mustaqil fikrli va qadrini baland saqlaydigan qiz sifatida gavdalanadi. Muallifning o'zi Elizabetni juda sevimli qahramoni deb atagan va ingliz adabiy tanqidchilari ham uni eng ko'p tahlil qilingan obrazlardan biri sifatida e'tirof etishadi. Elizabetning o'ziga xos jihati – u o'sha davr odatlari doirasida qolgan holda ham, atrofdagi nohaqlik va ahmoqqarchiliklarga nisbatan o'zining mustaqil fikri va kinoyali munosabatini bildiradi. Muallif Elizabet timsolida “zamonaviy ayol” idealini ilgari suradi, ya'ni romandan ayol nafaqat go'zal va tarbiyali bo'lishi, balki zehnli, zukko, vaqti kelganda jasoratli bo'lishi ham kerak

degan g'oya sizib turadi. Darhaqiqat, Elizabet zakovati va mantiqiy fikrlashi tufayli roman davomida bir qator muhim qarorlar qabul qiladi hamda muhim dialoglarda erkak qahramonlar bilan teng ravishda bahsga kirisha oladi.

“Andisha va g'urur” o'z davriga kinoya ruhida bitilgan bo'lib, unda Angliya zodagonlarining turmush tarzi, odob-axloqi til vositasida juda nozik ifodalangan. Masalan, Bennetlar oilasidagi qizlarning muammosi – meros masalasi. Janob Bennetning mulki faqat erkak vorisga qoladigan qilib belgilangan. Shu bois besh qizning kelajagi faqat turmushga chiqishiga bog'liq. Bu ijtimoiy holat missis Bennet (onaning) xatti-harakatlarida va nutqida doimiy tashvish va shoshma-shosharlik sifatida aks etadi. Uning “birorta qizim boy odamga turmushga chiqsa bas, barcha muammo hal bo'ladi” qabilidagi gap-so'zlari orqali muallif o'sha davr jamiyatidagi ayollarning iqtisodiy qaramligi masalasini yoritadi.

Romanda muloqot odobi va murojaat shakllari ham madaniy ahamiyatga ega. Masalan, Elizabet va uning singillariga notanishlar “Miss Bennet” yoki “Miss Elizabet” tarzida rasmiy murojaat qilishadi, uydagilar esa erkalab “Lizzi” deb atashadi. Katta martabali kishilar bilan suhbatda rasmiy, xushmuomala uslub saqlanadi. Til odobi qoidalari shu qadar kuchliki, hatto mag'rur va qo'pol Ledi Ketrin ham Elizabetga dakki berayotganida unga “Miss Bennet” deya murojaat qilaveradi. Biroq Elizabet, o'z navbatida, bu xushmuomalalik pardasi ortida o'zining qat'iy pozitsiyasini bildiradi. Masalan, Ledi Ketrin Elizabetga jiyani – janob Darsiga turmushga chiqmaslikni buyurib, ijtimoiy tabaqalar tengsizligini pesh qilganida, Elizabet quyidagicha dadil javob qaytaradi: “U janob, men esa janobning qiziman – shu ma'noda biz tengmiz”. Bu gap (“He is a gentleman; I am a gentleman's daughter; so far we are equal”) ijtimoiy mansublik borasida juda katta ma'noga ega – Elizabet o'zini ijtimoiy jihatdan Darsidan past sanamasligini ochiq bildiradi. Albatta, bunday jasoratli bayonotlar ham xushmuomalalik chegarasida, muloyim, biroq kinoyali ohangda ifodalanadi, shu tariqa Elizabet adab doirasini buzmaganda qarshi tomonning mantiqsiz da'vosini rad etadi.

Lingvokognitiv tahlil orqali Elizabetning nutqi va munosabatida muallif o'z ovozi singdirib yuborganligi sezilib turadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha,

Elizabet Bennet muallifning feministik qarashlarini ifodalovchi “dahan” rolini o‘ynaydi – ya’ni u orqali Ostin ayollar huquqsizligi va erkaklar hukmronligiga qarshi o‘z fikrini bildiradi [12; 35]. Masalan, Ledi Ketrin bilan mojaroda Elizabetning yuqoridagi so‘zlari Ostinning patriarxal ideologiyaga qarshi faol ayol pozitsiyasini ifodalaydi. Xuddi shuningdek, Elizabetning janob Kollinzning taklifini rad etishi ham shaxs erkinligiga intilish belgisidir – o‘sha davrda ko‘p ayollar “qulay taklif”ni rad eta olmas edi. Ammo Elizabet sevgisiz turmushni tasavvur qilolmaydi-ki, bu xatti-harakat uning ongi “turmush – avvalo baxt uchun” degan zamonaviy tushuncha zamirida shakllanganini bildiradi.

“Andisha va g‘urur” romanida boshqa ayol qahramonlar ham diqqatga sazovor. Jeyn Bennet – Elizabetning opasi – muloyimlik va sofdillik timsoli; u doimo boshqalardan faqat yaxshilik izlaydigan, halim fe’lli qiz. Jeyn obrazi orqali Ostin ideal an’anaviy ayol fazilatlarini ko‘rsatadi – u andisha, sabr, iffat bobida namuna. Lidiya Bennet esa aksincha, yengiltak va o‘ychan qiz bo‘lib, uning qilmishi (Wolfingem bilan qochib ketishi) oilaning nomusiga dog‘ tushiradi. Lidiya obrazi Ostin tarafidan bir oz hajviy va tanqidiy ruhda chizilgan – u o‘z nafsini va hissiyotlari yo‘lida yurib, jamiyat qoidalarini buzadi va buning salbiy oqibatlari ko‘rsatiladi. Bu orqali muallif o‘quvchilarga ayol kishi o‘z xatti-harakatlari uchun jamiyat oldida javobgar ekanini eslatadi. Sharlotta Lyukas (Elizabetning dugonasi) obrazi esa ayollarning ijtimoiy majburiyatlar bilan murosaga kelishiga misol bo‘la oladi: u yosh emas, uncha go‘zal ham emas, kelajagi noaniq bo‘lgan qiz sifatida janob Kollinzning (Elizabet rad etgan) taklifini qabul qiladi va “hisobsiz muhabbatdan ko‘ra hisobli turmush afzal” degan aqidaga amal qiladi. Sharlottaning qarori orqali J. Ostin o‘quvchiga o‘sha davrdagi haqiqatni ko‘rsatadi – ko‘plab ayollar uchun sevgi unchalik tanish baxt emas edi, aksincha, turmush – ijtimoiy himoya vositasi edi [13; 81]. Bu achchiq haqiqat Elizabetga qarama-qarshi qo‘yilgan Sharlotta misolida yanada yaqqolroq seziladi va kitobxonni o‘ylantiradi: ayol taqdirida qaysi muhim – muhabbatmi yoki majburiyat?

Lingvomadaniy tomoni shundaki, Ostin ayollar tilida va ular haqidagi dialoglarda jamiyatning turli stereotip va qarashlarini ifoda etadi. Masalan, janob

Darsi va Bingleylar xonimlari suhbatida “bilimli, hunarli, pokdomon – haqiqiy ma’noda komil ayol juda kam uchraydi” degan fikrlarni bildiradi. Karolina Bingley jamiyatdagi “mo‘tabar xonim” qanday bo‘lishi kerakligini sanab o‘tadi: musiqa chalishni bilish, chet tillarni bilish, rasm chizish, jamiyat odobini mukammal egallagan bo‘lish va hokazo. Darsi esa “ayollarning zehnli bo‘lishi va kitob o‘qib fikrini boyitishi”ni ham qo‘shadi. Bu talablarga Elizabet kulimsirab “bunday ayolni hayotda ko‘rmaganim uchun ajablanmayman” deya javob beradi. Ushbu “komil ayol” bahsi roman ichida muhim o‘rin tutadi, chunki u orqali muallif jamiyatning ayollarga nisbatan nohaq standarti borligini fosh etadi. J. Ostin ayollarni “barcha hunarlarga ega farishta” deb biluvchi stereotipni rad etmoqda va o‘quvchining ongida “haqiqiy ayol” obrazi – tirik odam, o‘ziga xos shaxs sifatida gavdalanishi kerakligini uqtirmoqda.

Elizabet va janob Darsi munosabatlari romanning markaziy syujeti bo‘lib, ular o‘rtasidagi tushunmovchilik bosqichma-bosqich yechiladi. Bu jarayonda ayol qahramon (Elizabet) nafaqat jamiyatga, balki o‘z ichki xato tasavvurlariga ham qarshi kurashadi – dastlab Darsini mag‘rur va murosasiz deb yomon ko‘radi, keyinchalik uning asl fazilatlarini anglab, avvalgi fikrida adashganini tan oladi. Bu muallifning qahramonni o‘sishta tasvirlash usuli bo‘lib, o‘zini o‘zi anglash konseptini ifodalaydi. Ya’ni, Elizabet haqiqiy muhabbat va baxtga erishish uchun avvalo o‘z xato dunyoqarashini yengishi lozim bo‘ladi – bu esa uning ichki kognitiv inqirozi va yengish jarayonini ko‘rsatadi. Natijada u o‘z baxtini topadi: g‘urur va noto‘g‘ri qarashlar o‘rnini o‘zaro hurmat va muhabbat egallaydi. Shu nuqtada roman xotima topadi – Elizabet janob Darsiga turmushga chiqadi. Bu ijobiy yakun Jeyn Ostinning ayol qahramoni orqali ilgari surgan g‘oyalarining tantanasidir: aqlli, irodali ayol baxtga loyiq va u bunga erishadi. Shunisi qiziqki, J. Ostin zamondoshlari asarlarida ko‘p hollarda ayol qahramon osongina baxtga erishmaydi yoki tragik qismatga duchor bo‘ladi. “Andisha va g‘urur” muallifi esa Elizabetga baxt ato etadi, shu orqali o‘quvchida ham quvonch hissi uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, “Andisha va g‘urur” romanida Elizabet misolida mustaqil fikrlovchi, ijobiy o‘zgarishga intiluvchi va muhabbatda tenglikni talab

qiluvchi yangi ayol timsoli ifodalanadi. Jeyn Ostin davrining lingvomadaniy muhitini – ya’ni qat’iy ijtimoiy me’yorlar, ayollar erkinligini cheklovchi qonun-qoidalarni – juda yengil satira vositasida tilga oladi va shu muhit cheklovlariga o’z qahramoni orqali javob qaytaradi. Lingvokognitiv tahlil shuni ko’rsatadiki, Elizabet obrazi o’quvchi ongida odatiy “itoatkor qiz” stereotipini buzib, o’rniga “jasoratli va oqil qiz” konseptini mustahkamlaydi. Aynan shu bois Elizabet Bennet obrazi asrlar davomida kitobxonlarni ilhomlantirib kelmoqda – u o’z davri uchun yangicha fikrlaydigan ayol bo’lsa-da, uning tafakkuri va qadriyatlari bugungi kun uchun ham dolzarb va tushunarli.

Sharq (o‘zbek) va G‘arb (ingliz) adabiyotidagi o‘xshash va farqli jihatlar tahlili:

a) “O’tkan kunlar” XIX asr Turkiston hayotini aks ettirib, ko’pxotinlik, ayollarning erkaklarga bo’ysunuvchanligi kabi sharqona urf-odatlarini tasvirlaydi. Ayol qahramonlarning o’zaro munosabatlari (masalan, kundoshlar raqobati) shu madaniy sharoit mahsuli. “Andisha va g’urur” esa XIX asr boshidagi Angliya zodagonlari hayotini ko’rsatib, monogam oilaviy tizim va meros huquqi bilan bog’liq muammolarni ochib beradi. Har ikki holatda ham jamiyatning ayolga taalluqli qoidalari asardagi voqealarga asos bo’ladi;

b) “O’tkan kunlar” romanining tili xalqona iboralar, maqollar bilan boyitilgan bo’lib, u milliy ruhni kuchaytiradi. Masalan, O‘zbek oyim obrazidagi ibora (kovshim ko’chada qolgan emas) yoki Kumush va boshqa qahramonlar tilidagi maqollar bunga misoldir. Jeyn Ostin romanida esa nozik kinoya, didaktik ohangga ega dialoglar ko’proq, maqol yoki naqlar deyarli yo‘q, ammo ijtimoiy kinoya kuchli. Masalan, Missis Bennetning istar-istamas mehmonnavozligi yoki Ledi Ketrinning kiborlik bilan masxara qilishi yengil kulgi uyg’otadi. Har ikkala uslub ham o’z o’quvchisi uchun tanish va samimiy: o’zbek o’quvchisi A. Qodiriy tilidan milliy ruhni tuyadi, ingliz o’quvchisi J. Ostin satirasidan zavq oladi;

d) Kumush – Sharq an’analariga ko’ra ideal rafiq va fidoiy yor timsoli, u o’z baxti uchun qattiq kurashmaydi, taqdiriga rozi bo’lib, sabr ko’rsatadi. Elizabet esa – G‘arb odamlari ongida shakllangan ideal: u baxti uchun kurashadi, erkak

bilan tenglikni talab qiladi va shaxsiy fikrini himoya qiladi. Biroq, har ikkisi ham aqlli, o'ziga xos, oqila ayol sifatida tasvirlangan va asar yakunida ularning fazilatlari yuksak e'tirof etiladi (Kumush vafot etsa-da, o'quvchi qalbidan muqim joy oladi; Elizabet esa baxtga erishib, jamiyatda hurmat qozonadi). Demak, Sharq va G'arb mualliflari turli yo'l bilan bo'lsa-da, ayolning ichki go'zalligi va aql-zakovati g'alaba qozonishi g'oyasini ilgari surishadi;

e) "O'tkan kunlar" janr jihatidan tarixiy-romantik asar bo'lib, syujet fojeiy yakun topadi – bu Sharq adabiyotidagi ko'plab ishqiy hikoyatlar an'anasiga hamohang (masalan, "Layli va Majnun"). "Andisha va g'urur" esa komediya janrida yozilgan bo'lib, syujet baxtli nikoh bilan tugaydi – bu G'arb adabiyotidagi an'anaviy komediya janriga mos (masalan, Shekspir komediyalarida ham juftliklar baxtga erishadi). Bu janr farqlari ham ayol obrazining taqdirida namoyon: Sharqda ideal ayol ko'pincha fidoiylilik qurboni bo'lsa, G'arbda ideal ayol o'z sa'y-harakati bilan baxtga erishuvchi sifatida tasvirlanadi. Albatta, bu qat'iy qoida emas, lekin tanlangan ikki asar misolida shunday tendensiya kuzatiladi.

Yuqoridagi qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, lingvomadaniy va lingvokognitiv yondashuvlar orqali ayollar obrazini o'sha asar yaratilgan madaniy-milliy muhit va ijodkor niyati bilan uzviy bog'liq holda tushunish mumkin. A. Qodiriy va J. Ostin ikki dunyo va davr vakillari bo'lsa-da, ular qalamga olgan ayol qahramonlar o'z xalqi hayotiy tajribasini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'laydi. Shu bois, Kumush ham, Elizabet ham o'quvchilar uchun sevimli va ta'sirchan obrazlardir – ular orqali biz muhabbat, sadoqat, g'urur, matonat kabi tuyg'ularning turli ko'rinishlarini anglaymiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, badiiy matnda til vositalari (nutq, uslub, iboralar, dialog va monologlar) ortida ulkan madaniy kontekst va konseptual ma'nolar majmuasi yashirinadi. Ularni yuzaga chiqarish orqali biz qahramonning yanada teranroq portretini tasavvurimizda gavdalantira olamiz. Bu esa, o'z navbatida, adabiyotdagi ayol qiyofasini anglashda bizga yordam beradi.

FOYDALANILGANGAN ADABIYOTLAR:

1. Shokyma G.T. et al. *Linguo-Cultural Image of a Woman in the Turkic Gender (Conceptosphere)* // *Eurasian Journal of Applied Linguistics*, 9 (2), 2023. 238 p.
2. Ravshanova M. *Cultural Linguistic Units in Abdulla Qodiriy's "O'tkan Kunlar"* // *European Scholar Journal*, 5 (11), 2024. 43 p.
3. Степанов Й. С. *Константи: Словар Русской Култури.* – М.: Академический проект, 2004. – 991 с.
4. Телия В.Н. *Русская фразеология.* – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.
5. Myronova N., Poltoratska A., *Linguo-cognitive analysis of a literary text: linguistic means of expression of concepts and images* // *Conhecimento & Diversidade*. Vol. 15 No. 40 (2023). 304-321.
6. Kirilina A.V. *Gender studies in linguistics and communication theory.* М., 2004. S. 85.
7. Christie Ch. *Gender and language: Towards a feminist pragmatics.* - Edinburgh, 2000. - 232 p.
8. Hasanova X.R. *Tarixiy asarlarda ayollar obrazi talqini ("O'tkan kunlar" misolida)* // *"Talqin va tadqiqotlar"* ilmiy-uslubiy jurnali, №12, 2022.
9. Қодирий А. *Ўткан кунлар.* – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 464 б.
10. Ostin J. *Andisha va g'urur.* - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. - 404 bet.
11. Rasulova I.I. *Sharq va G'arb badiyatida ayol ifodasining lingvokulturologik tadqiqi (A.Qodiriy va J.Ostin asarlari misolida).* *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 2024.
12. Al-Hawtali A.M., Tayeb Y.A. *Ladies Come First: Strong Female Voice in Jane Austen's Pride and Prejudice* // *Journal of English Language and Linguistics*, VOL.3 No. 2 (July-December) 2022. 35 p.
13. Prashanthi, V. & Behera, S. *Analysing Speech in Jane Austen's Pride and Prejudice based on Gender.* *International Journal of English Literature and Social Sciences*, 9(4), 2024. 81 p.